



ЮРИДИК ШАХСНИ ТАШКИЛ ЭТИШ, ҚАЙТА ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ТУГАТИШ БИЛАН БОҒЛИҚ КОРПОРАТИВ НИЗОЛАР

Xabibullaev Davlatjon Yulchibaeovich

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori,
yuridik fanlar nomzodi*

Ibratova Feruza Boboqulovna

*Toshkent davlat yuridik universitetining professori v.b.,
yuridik fanlar doktori*

Matkarimova Muxayyo Maksudbekovna

Toshkent davlat yuridik universitetining magistranti

Annotatsiya: Уибуб маколада юридик шахсни ташкил этиши, қайта ташкил этиши ва тугатииш билан боғлиқ низоларнинг Ўзбекистон Республикаси конунчилиги хуёжжатларидағи нормалар ва илмий адабиётлардаги хукукий таҳлили баён килинган. Шунингдек, конун хуёжжатларидағи юридик шахснинг фаолият юритиши ва макоми хусусида қарашлар таҳлил килинган. Корпоратив низолар шаклидаги низолар тушиунчасига атрофлича тўхталиши баробарида низонинг юзга келиши сабабларига хам санаб утилган.

Калит сўзлар: корпоратив низолар, корпоратив хукукий муносабатлар, давлат рўйхатидан ўтказиши, ташкилий хукукий шакли.

КОРПОРАТИВНЫЕ СПОРЫ, СВЯЗАННЫЕ С СОЗДАНИЕМ, РЕОРГАНИЗАЦИЕЙ И ЛИКВИДАЦИЕЙ ЮРИДИЧЕСКОГО ЛИЦА

Хабибуллаев Давлатжон Юлчибаевич

*Профессор Ташкентского государственного юридического университета,
кандидат юридических наук*

Ибратова Феруза Бобокуловна

*И.о. профессор Ташкентского государственного юридического университета,
доктор юридических наук*

Маткаримова Мухайю Максудбековна

*Магистрант Ташкентского государственного
юридического университета*

Аннотация: В данной статье представлен правовой анализ споров, связанных с созданием, реорганизацией и ликвидацией юридического лица в правовых документах Республики Узбекистан и в научной литературе. Также были проанализированы представления о деятельности и статусе юридического лица в юридических документах. Перечислены причины возникновения конфликта, а также понятие конфликтов в форме корпоративных споров.



Ключевые слова: корпоративные споры, корпоративные правоотношения, государственная регистрация, организационно-правовая форма.

CORPORATE DISPUTES RELATED TO THE CREATION, REORGANIZATION AND LIQUIDATION OF A LEGAL ENTITY

Khabibullaev Davlatjon Yulchibaevich

Professor of Tashkent State University of Law, Ph.D. in Law

Ibratova Feruza Bobokulovna

Professor of Tashkent State Law University, Doctor of Law

Matkarimova Muhayo Maksudbekovna

Master student of Tashkent State Law University

Annotation: This article presents a legal analysis of disputes related to the creation, reorganization and liquidation of a legal entity in the legal documents of the Republic of Uzbekistan and in the scientific literature. Also, ideas about the activities and status of a legal entity in legal documents were analyzed. The causes of the conflict are listed, as well as the concept of conflicts in the form of corporate disputes.

Key words: corporate disputes, corporate legal relations, state registration, legal form.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ munosabatlarning rivojlanishida davlat muhim o'rni tutidi. Davlat jamiyatdagi ijtimoiy, shu jumladan, iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor sub'ekt sifatida uning o'zi tadbirkorlik bilan bevosita shug'ullanmaydi, balki sohaga oid umumiylar jarayonlarning asosiy siyosiy tashkilotchisi bo'lib, ishlab chiqarishni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi, tadbirkorlikning taraqqiy etishiga huquqiy, iqtisodiy shart-sharoit yaratib beradi⁶¹.

Korporativ huquq printsiplaridan kelib chiqqan holda yana bir muhim masala haqida to'xtalib o'tish kerakki, fikrimizcha, yuridik shaxsni tashkil qilish bilan bog'liq nizolarni korporativ nizolar deb hisoblash uchun bu yerda tashkil etilayotgan yuridik shaxs, ya'ni korporatsiya davlat ro'yxatidan o'tgan bo'lishi lozim⁶². Masalan, biror korporatsiya tashkil etilib, u davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng ta'sischilar o'rtasida shu korporatsiyaning tashkil etilishi bilan bog'liq nizo paydo bo'lsa, ushbu nizo korporativ nizo tariqasida ko'rib chiqiladi. Bundan kelib chikib aytishimiz mumkunki, tadbirkorlik sub'ektlari davlat ruyxatidan o'tmasa, ular o'rtasida yuzaga kelgan nizolarni korporativ nizo yemas, aksincha, ma'muriy yoki iktisodiy nizo deb baxolash maksadga muvofik bo'ladi⁶³.

Agar korporatsiya davlat ro'yxatidan o'tmasdan turib uni ta'sis etayotgan shaxslar o'rtasida shu korporatsiyaning tashkil etilishi bilan bog'liq nizo paydo bo'lsa,

⁶¹ Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.

⁶² Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.

⁶³ Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2022. – 2022.

korporatsiyani tashkil etayotgan shaxslar yuridik jihatdan ta'sischi maqomini olmaganliklari hamda shu korporatsiya ham yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmanligi sababli ushbu nizo korporativ nizo hisoblanmaydi va bu toifadagi nizolar iqtisodiy sudga taalluqli bo'lmaydi⁶⁴. Chunki IPK 37-moddasining beshinchi qismidagi "yuridik shaxs joylashgan yerdagi" degan jumla tashkil etilayotgan korporatsiyaning yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishligini anglatadi. FK 44-moddasining to'rtinchi qismida yozilishicha, yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi. Ya'ni yuridik shaxs tashkil etish to'grisidagi ishtirokchilarning karori yoki bayonnomasidan farkli ravishda belgilangan tartibda davlat ruyxatidan utgandann keyin yuridik shaxs makomiga ega buladi⁶⁵.

FKning 43-moddasiga ko'ra, yuridik shaxslar ta'sis shartnomasi va ustav va ta'sis shartnomasi asosida faoliyat yuritishi belgilangan. FK 41-moddasi birinchi qismiga ko'ra, yuridik shaxs o'zining ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi. Ushbu moddaning uchinchi qismida yuridik shaxsning maxsus huquq layoqati uning ustavi, nizomi yoki qonun hujjatlari bilan belgilanishi yozilgan. Asosan korporativ nizolar ushbu xujjatlar talablarini buzilishi okibatida kelib chikadi va tomonlarga bir kancha majburiyatlar yuklaydi.

Ma'lumki, yuridik shaxsning ta'sis shartnomasi muassislar tomonidan tuziladi. Ta'sis shartnomasida yuridik shaxs tashkil etilayotgan va faoliyat yuritayotgan jarayondagi muassislar o'rtaqidagi munosabatlar tartibga solinadi. Unda ishtirokchilar yuridik shaxsni tashkil etish tartibini, birgalikda faoliyat ko'rsatish, uning ustav fondiga o'z ulushlarini yoki mol-mulklarini kiritish, uning faoliyatida qatnashish shartlarini belgilaydilar⁶⁶.

Jamiyat ustavi yuzasidan vujudga keladigan nizolar ham sudda ko'rildigan korporativ nizolarga oid talabning predmeti bo'lishi mumkin. Ammo ta'sis shartnomasidan farqli ravishda jamiyat ustaviga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarining bitimni haqiqiy emasligi bilan bog'liq normalari qo'llanilmaydi⁶⁷.

Agar biror jamiyatning ta'sis hujjatlarida bartaraf etiladigan buzilishlar mavjud bo'lsa, bu holat aktsiyadorlarning navbatdan tashqari umumiyligiga yig'ilishini chaqirish va ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish masalasini ko'rib chiqish majburiyatini yuklash haqidagi talab bilan sudga murojaat qilish uchun asos bo'ladi. Bartaraf etilmaydigan buzilishlar mavjud bo'lganda esa, bu holat FK 53-moddasi ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisiga asosan jamiyatning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini haqiqiy emas deb topish haqidagi talab bilan sudga murojaat qilish uchun asos bo'ladi.

⁶⁴ Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.

⁶⁵ Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – T. 45.

⁶⁶ Okyulov O., Ibratova F., Salimova I. Legal issues of remedies by the judgment //International Research Conference on Technology, Science, Engineering & Management. – 2021. – C. 53-60.

⁶⁷ Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.

Korporatsiyani tashkil etish bilan bog'liq korporativ nizolarga oid ishlarni ko'rishda yana bir muhim masalaga e'tibor berish lozim. Amaliyatda ta'sis shartnomasi qoidalari bilan jamiyat ustavi qoidalaringin bir-biriga mos kelmasligi hollari ham uchrab turadi⁶⁸.

Bunday holatda jamiyat ustavi qoidalari uchinchi shaxslar va jamiyat ishtirokchilarini uchun ustuvor kuchga ega hisoblanadi. "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatlari jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 13-moddasida ta'sis shartnomasi va ustav jamiyatning ta'sis hujjatlari sifatida ko'rsatilib, agar jamiyat bir shaxs tomonidan ta'sis etilsa, shu shaxs tasdiqlagan ustav, jamiyat ishtirokchilarining soni ikki va undan ortiq kishiga ko'paysa, ular o'rtasida ta'sis shartnomasi tuzilishi kerakligi qayd etilgan.

Jamiyatning ta'sis hujjatlariga o'zgartishlar jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga binoan kiritiladi. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kerak⁶⁹.

Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, uchinchi shaxslar uchun kuchga kiradi. Korporatsiyani tashkil etishga oid nizolarni hal etishda ba'zi hollarda sudiyalar tomonidan shu korporatsiyaning ta'sis shartnomasini fuqarolik-huquqiy munosabatlar keltirib chiqaruvchi oddiy bitim, deb hisoblash mumkin yoki mumkin emasligi yuzasidan fikrlari turlichadir⁷⁰.

Ta'kidlash joizki, ta'sis shartnomasi o'z tabiatiga ko'ra, fuqarolik huquqiy munosabatlar keltirib chiqaruvchi oddiy yozma bitim, ya'ni ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama bitim hisoblanadi. Unda jamiyatning muassislari yuqorida ta'kidlanganidek, jamiyatni tuzish bilan bog'liq huquq va majburiyatlarini va uni tuzish yuzasidan birgalikdagi faoliyat tartibini belgilaydilar⁷¹.

Ta'sis shartnomasining o'ziga xos xususiyati shundaki, FK 43-moddasining oltinchi qismiga ko'ra, ta'sis hujjatlaridagi o'zgartishlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab, qonunda belgilangan hollarda esa – davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organ ana shunday o'zgartishlar haqida xabardor qilingan paytdan boshlab uchinchi shaxslar uchun kuchga ega bo'ladi⁷². Yuridik shaxslar va ularning muassislari mazkur o'zgartishlarni hisobga olib ish yuritgan uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda ana shunday o'zgartishlar ro'yxatga olinmaganligini vaj qilib ko'rsatishga haqli emaslar⁷³.

⁶⁸ Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.

⁶⁹ Babakulovna I. F. Grounds for the introduction of bankruptcy procedures for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur //International journal of professional science. – 2022. – №. 1. – C. 5-9.

⁷⁰ Babakulovna I. F. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team.

⁷¹ Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA-OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.

⁷² Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.

⁷³ Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – C. 5-10.

Ta'sis shartnomasining qonun hujjatlariga muvofiqligi bilan bog'liq korporativ nizoni ko'rishda sudlar, avvalo, uning FKda va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tegishli huquqiy normalarga mos holda tuzilganligini tekshirishlari lozim⁷⁴.

Masalan, MChJni ta'sis etish to'g'risidagi shartnoma aldash yo'li bilan g'araz niyatda tuzilganda, aldangan ishtirokchi uni qisman yoki butunlay haqiqiy emas, deb topish va uning bir qismini haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli xisoblanadi⁷⁵. Sud ishtirokchining haqiqatan ham aldanganligi holatini aniqlasa, ta'sis shartnomasini qisman yoki butunlay haqiqiy emas deb topishi va uning haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llashi, ya'ni ustav fondiga qo'shgan ulushini qaytarishi mumkin⁷⁶.

Xulosa kiladigan bo'lsak korporativ nizolar tomonlar o'rtasidagi yuzaga keladigan kelishmovchiliklar va muommolar natijasida vujudga keladi. Etiborli tomoni shundagi, korporativ nizo bo'lisi unun tadbirdorlik suyebektlari davlat ruyxatidan o'tgan bulishi lozim. Aks xolda ushbu nizolar ma'muriy yoki iktisodiy nizo ko'rinishida bo'ladi. Shuningdek, korporativ nizolarni kamaytirish va oldini olishning eng makbul usuli sifatida ta'sis shartnomalari va ustav amaldagi konun xujjatdariga muvofik tuzilgan bulishi lozim. Tadbirkorlik sub'ekti ishchitirokchilari mavjud konun xujjatlariga amal kilsa nizo o'z o'zidan bartaraf kilinadi. Shu o'rinda korporativ nizolarni bartaraf kilishda amaldagi konunchiligidizda mavjud bo'lgan kamchiliklarni amaliyotdagi tajribalar natijasida yechim topish maksadga muvofik bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibratova F. B., Erezhepov B. I., Ortikov S. S. ECONOMY, ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF ENTERPRISES, INDUSTRIES, COMPLEXES //Editorial team.–2019. – 2019. – T. 1. – C. 13-19.
2. Ibratova F. B. Legal consequences of the introduction of a bankruptcy procedure for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur. – 2022.
3. Ibratova F. LEGAL ISSUES OF MEDIATION ON INDIVIDUAL LABOR DISPUTES //SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM.–2022. – 2022.
4. Ibratova F. TERMS IN CIVIL LAW AND THEIR APPLICATION IN LEGAL PROTECTION OF CITIZENS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.
5. Ibratova F., Ahadova M., Rozmetova A. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team,(2021). – 2021. – T. 45.

⁷⁴ Boboqulovna I. F. et al. HAKAMLIK SUDI VA DAVLAT SUDLARI O 'RTASIDAGI FARQ QILUVCHI OMILLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 110-115.

⁷⁵ Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 327-332.

⁷⁶ Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG 'LIQ MASALALARING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 105-109.

6. Okyulov O., Ibratova F., Salimova I. Legal issues of remedies by the judgment //International Research Conference on Technology, Science, Engineering & Management. – 2021. – C. 53-60.
7. Babakulovna I. F., Abdurazzakovna T. T. Ibratova FB, Tashbaeva TA Mediation agreement on a labor dispute: theory and practice //Editorial team. – 2021. – T. 2021. – C. 45.
8. Ibratova F. B. et al. Effective and Reasonable Implementation and Application of the Principle of Ability to Be Heard Under Foreign and National Legislation of the Republic of Uzbekistan //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 18. – C. 485-501.
9. Babakulovna I. F. Grounds for the introduction of bankruptcy procedures for an individual entrepreneur or an individual who has lost the status of an individual entrepreneur //International journal of professional science. – 2022. – №. 1. – C. 5-9.
10. Babakulovna I. F. APPLIED JURISPRUDENCE //Editorial team.
11. Boboqulovna I. F., Orif o'g'li R. B. MEDIATSIYA–OILAVIY NIZOLARNI HAL ETISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA //SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 80-85.
12. Boboqulovna I. F., Mamarjon o'g'li R. M. NIZOLARNI MUQOBIL HAL ETISHDA MEDIATSIYANING O'RNI VA MEDIATSIYA JARAYONINING MOHIYATI //INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2022. – T. 3. – №. 25. – C. 185-195.
13. Feruza I., Madina A., Asal R. LEGAL ISSUES OF JUDICIAL PROTECTION IN THE ECONOMIC COURT IN UZBEKISTAN //International journal of professional science. – 2022. – №. 4. – C. 5-10.
14. Boboqulovna I. F. et al. HAKAMLIK SUDI VA DAVLAT SUDLARI O'R TASIDAGI FARQ QILUVCHI OMILLAR //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 110-115.
15. Babakulovna I. F. et al. The Concept and Types of Corporate Disputes: Theory and Practice //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 327-332.
16. Boboqulovna I. F., Malika T. YURIDIK SHAXSNI TUGATISH BILAN BOG 'LIQ MASALALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 105-109.
17. Feruza I. et al. The concept and significance of corporate disputes: national and foreign experience //International journal of professional science. – 2022. – №. 5. – C. 5-13.